

METR.

Ibroximjonova Gavxar Amanbaevna – Xalqaro Nordik universiteti musiqa ta’limi kafedrasi dotsent v.b.

2-§ Metr. Takt. Oddiy metr va o‘lchovlar

Musiqani tinglayotganimizda biz, beixtiyor yoki ongli ravihda, bir maromda boshimizni chayqash, qo‘limzni silkitish yoki oyog‘imiz bilan yerni tepkilashni boshlaymiz. Bunday xarakatlarni o‘ziga jalg etadigan, bizga “buyruq” beradigan, musiqaning pulsatsiyasi undaydi. Pulsatsiya – bu bir tekis ravishda urib turadigan zarblardan iborat jarayondir (xuddi tomirning bir tekis urishiga o‘xshaydi).

Musiqada pulsatsiya jarayonidagi zarblarga **hissa** deyiladi. Hissa vaqtga bog‘liq bo‘lgan hisoblash birligidir. Uning qisqa-uzunkigi tovush cho‘zimlari bilan o‘lchanadi. Masalan, **39- misoldagi** kuyning hissalari sakkiztaliklarga teng,

43

D.Ober. Ayol vakil

Allegro

Tomir urishi

40-misolda har bir hissaning cho‘zimi chorak bilan barobar,

44

Alla marcia e molto marcato

**E.Grig. "Per Gunt" suitasi
"Tog‘ qiroli g‘orida"**

41-misolda har bir hissa yarimalik cho‘zim bilan o‘lchanadi.

44 a

Allegro maestoso

Yurakdagi bir maromda urib turadigan zarblar pulsatsiya jarayonini tashkil etadi. Musiqada esa zarblar pulsatsiyasi **hissalarning bir tekis kelishi** deyiladi va unga **metr**¹ tushunchasi qo'llaniladi.

Hammaga ma'lumki, har bir so'zda urg'u berilgan va urg'udan xoli bo'lган bo'g'inlar mavjud. So'zlar ketma-ketligida urg'uli va urg'usiz so'z bo'g'inlarining qay vaqtda kelishi ahamiyatga ega emas. She'r tuzilishida, aksincha, bunga katta e'tibor berilib, urg'uli va urg'usiz so'z bo'g'inlarini ma'lum bir tartibga keltirish talab qilinadi. Bu tarzdagi tartib she'riyatda ham metr deb ataladi.

Kuy yangrashida ham ayrim hissalar urg'usi bilan, ya'ni qattiqlik xususiyati bilan ajralib turadi. **Musiqada urg'uning o'zini aksent**² (>), aksentga ega bo'lган hissani kuchli, aksent tushmaydigan hissani kuchsiz hissa deb ataydi. Shundan kelib chiqadiki, musikadagi **metr – bu kuchli va kuchsiz hissalarning bir tekis almashinib turishidir.**

Aksentning roli, umuman olganda, birorta tovushning qattiqligini, boshqa tovushlardan ko'ra, orttirib ko'rsatishdir. Kuchli hissaga tushgan aksent uning qattiqligi va eng og'ir hissaligini yana bir bor ta'kidlaydi. Metrning yuzaga kelishida qo'llaniladigan ana shunday aksent **metrik aksent** yoki **metr aksenti** deb ataladi. Muntazam ravishda keladigan aksent xarakatlarni tartibga soladigan xususiyatga egadir. Metrik aksent osongina va samimiy ravishda idrok qilinadigan raqs, marsh, ommaviy va ommabob qo'shiq janrlari, klassik musiqa asarlariga xosdir.

Odatda, kuchli hissa bir necha kuchsiz hissalaridan so'ng qaytariladi. Masalan:

45

Agar kuchli hissa bitta kuchsiz hissadan keyin qaytarilsa – **ikki hissali metr**, ikkita kuchsiz hissalaridan so'ng qaytarilsa – **uch hissali metr** tashkil etiladi va hokazo.

¹ Metr – (yunoncha metron) – me'yor, o'lchov

² Aksent – (lotincha accentus: ad –birorta narsaga ya?inligini bildiradigan old ?o`shimcha, cantus - ashula aytish)

Bir kuchli hissadan keyingi kuchli xissagacha bol‘gan oraliq **takt** deyiladi. Takt metrning o‘lchov birligi hisoblanib, hamisha kuchli hissadan boshlanadi. Nota yozuvida taktlar nota yo‘lini ko‘ndalangiga kesib o‘tadigan **takt chizig‘i** bilan chegaralanadi. Takt chizig‘idan so‘ng yoziladigan birinchi nota yoki pauzani taktning kuchli hissasi deb bilmog‘i lozim. Asarning yoki biror ahamiyatli qismining tugashini ikkitalik takt chizig‘i bilan ko‘rastiladi (43- misol). (Ko‘p hollarda, metr haqida gap borganda, keng ma’nodagi “ikki hissali metr” tushunchaning o‘rniga metrning o‘lchov birligi nuqtai nazaridan “ikki hissali takt” yoki “uch hissali takt”, deb aytilishi ham mumkin).

Har bir taktni tashkil qiladigan hissalar miqdori va ularning cho‘zimi nota yozuvida ustma-ust joylashgan ikkita raqam bilan ifodalanadi va asarning faqat boshida kalitdan keyin yoki kalit yonidagi alteratsiya belgilaridan so‘ng yoziladi. Ushbu raqamlar metrning yozma ifodasi bo‘lib, **o‘lchov** deb nom olgan.

O‘lchovning ustki raqami takt (metr)dagi hissalar sonini, pastki raqami esa har bitta hissaning qanday cho‘zimda ifodalanganligini bildiradi. Masalan: 2/4 o‘lchov har bir takt ikkita hissadan iborat bo‘lib, uning hissalari chorak cho‘zimiga teng bo‘lishini aniqlaydi (14- misolga qarang).

Kuchli hissadan boshlanadigan takt to‘liq taktdir. Ba’zi asar to‘liqsiz taktdan, ya’ni kuchsiz hissadan boshlanuvchi **taktoldi** dan boshlanadi. Bunday asarlarning ohirgi takti ham to‘liqsiz bo‘lib, taktoldi bilan qo‘shilgan holda to‘liq taktni tashkil qiladi.

46

Alla. O‘zbek xalq qo‘shtig‘i

Al-la ay - tay, jo-nim
Al-la ay - tay, jo-nim

bo-lam, qu-loq sol - gin, al - la.
bo-lam, shi-rin qo' - zim, al - la.

Shi - rin al - lam
Sen qu - von-chim, ting - lab as - ta

ux - lab qol - gin, al - la.
ko' - rar ko' - zim, if - ti - xo - rim,

al - la.

2- §. Nota cho‘zimlarning oddiy taktlarda guruhanishi.

Metr turlarini takt ichidagi kuchli hissalarning soniga qarab ajratadi. Bitta kuchli hissaga ega bol'gan takt **oddiy metrning** ko'rsatkichidir. Ikkita, uchta va undan ortiq kuchli hissa o'z ichiga olgan takt **murakkab metr** hisoblanadi.

Metr turlari uning ikki va uch hissali metr lari hamda ularning turlichay qo'shilishlari asosida barpo etiladi.

Oddiy metr (yoki oddiy takt, yoki oddiy o'lchov) deb bitta kuchli hissani o'z ichiga olgan, ikki yoki uch hissadan tashkil topgan metr (yoki takt, yoki o'lchov)ga deyiladi.

Oddiy metrlar quidagi o'lchovlarda o'z ifodasini topadi:

ikki hissali o'lchovlar – 2/2, 2/4, kamdan-kam 2/8, 2/16.

2/2 o'lchov **alla breve** deyiladi va o'rniga  belgi qo'llaniladi.

uch hissali o'lchovlar – 3/2, 3/4, 3/8, kamdan-kam 3/16.


Nota yozuvini tez o'qish jarayonini osonlashtirish maqsadida taktdagi mayda (bayroqchali) cho'zimli notalar uzunligini bir biriga qo'shish yo'li bilan taktning har bir hissa cho'zimiga teng keltirib, alohida guruhlarga birlashtirish usuli yaratildi. Bunga **nota cho'zimlarining guruhanishi** (turkumlanishi) aytiladi (shunda nota bayroqchalari gorizontal chiziq – qovurg'alarga almashtiriladi).

Asosan taktdagi guuhular soni takt hissalarini soni bilan bir xil bo'ladi – ikki hissali taktda ikkita nota guruhi, ush hissalida esa uchta. Ayrim hollarda oddiy takt cho'zimlari bir xil bo'lsa, ularni bitta guruhgaga birlashtirish usuli ham tez-tez uchrab turadigan holatdir. (17-, 28 misolga qarang).

47




The image shows three musical examples. The first example shows a 2/4 time signature with two eighth notes followed by a sixteenth note, followed by a bar line and a 1/4 note. The second example shows a 2/4 time signature with a sixteenth-note pattern (two pairs of eighth-note pairs), followed by a bar line and a 1/4 note. The third example shows a 3/4 time signature with a sixteenth-note pattern (one pair of eighth-note pairs followed by a sixteenth note), followed by a bar line and a 1/4 note.



48

Pauzalar ham nota cho‘zimlaridek takt hissalariga bo‘ysunib guruhlanadi.



3- §. Murakkab metr va o‘lchovlar. Murakkab taktlarda cho‘zimlarning guruhlanishi.

Murakkab metr oddiy metrlarning qo‘shilishidan kelib chiqadi.

Murakkab taktdagi kuchli hissalarning soni uni tashkil etuvchi oddiy metrlar sonidan kelib chiqadi. Masalan: $2/4+2/4+2/4=6/4$ – bu oltita chorakdan iborat taktda uchta aktsentli hissa mavjudligini bildiradi. Bilamizki, to‘liq takt faqat kuchli hissadan boshlanadi. Shunday ekan, keltirilgan misoldagi aktsentli hissalardan birinchisi eng kuchli hissadir. Qolgan ikkitasi unga nisbatan sal kuchsizroq bo‘ladi. Shuning uchun ular nisbatan kuchli hissalar deb ataladi.

Murakkab metrlar uch xil bo‘ladi: **bir turdagি, aralash** va **o‘zgaruvchan** metrlar.

Bir turdagи murakkab metrlar, o‘z navbatida, ikki hissali va uch hissali metrlarga ajraladi.

Murakkab ikki hissali metrlar oddiy ikki hissali metrlar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi. Ulardan to‘rt hissali metr (2 hissa + 2 hissa) ko‘p qo‘llaniladi – $4/4$, $4/2$, $4/8$. $4/4$ o‘lchovi C belgi bilan ham belgilanishi mumkin. (29- misolga qarang).

49

$4/4 = 2/4 + 2/4$

Murakkab uch hissali metrlar oddiy uch hissali metrlar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi. Ulardan olti hissali ($3+3$) va to‘qqiz hissali ($3+3+3$) metrlar keng tarqalgan : $6/4$, $6/8$; $9/4$, $9/8$.

50

6/4=3/4+3/4.



Murakkab metrda yozilgan misollar musika adabiyotida ko‘p uchraydi.

Aralash metrlar ikki va uch hissali metrlar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi. Ulardan besh hissali metrlar (3+2 ёки 2+3) ko‘proq uchrab turadi:
 $5/4=2/4+3/4$, $5/4=3/4+2/4$; $5/8$.

51



52

$\text{♩}=96$

O‘zbek xalq qo‘srig‘i "Gajjagim"

Bo‘lmayin ah - yo-na ham - dam e pa-ri tan - ho-na kel,

53

$\text{♩}=84$

O‘zbek xalq qo‘srig‘i "Holayli"

Oq-dir bi - la-gim, oq - di - r(ay), Rom-boq-chi - ga rom boq - ti - r(ay).

Yetti hissali metrlar (2+2+3; 2+3+2; 3+2+2) kamdan kam uchraydi:
 $7/4=2/4+2/4+3/4$, $7/4=2/4+3/4+2/4$, $7/4=3/4+2/4+2/4$; $7/8=3/8+4/8$.

54

$\text{♩}=96$

O‘zbek xalq qo‘srig‘i "Mug‘ulcha"

(A) Xo - ma muj - gok ko‘z qa - ro -
 - si - dan yo - zib ro - zu di - lim,

O'zbek xalq qo'shig'i "Bilaguzuk"

♩=108

Soy bo - yi - da - (yo) tur - gan yi - git

O'zgaruvchan metr musiqa asari davomida o'zgarib turadigan metrqa aytiladi. O'zgaruvchan metr tekis va notekis almashinadilar. Tekis, ya'ni vaqtiga bilan almashinadigan metrning o'lchovlari kalit yonida ketma-ket joylashgan ikkita kasr raqam bilan ifodalanadi.

Latisch xalq qo'shig'i

Notekis almashinadigan metrning o'lchovlari har bir o'zgarish yuz berganda takt boshida qo'yiladi.

Moderato ♩=92

Toshkent maqomi "Gulyor Shahnoz" III qism "Chavandoz"

Zeboning - ni ke - tur - gil, e, shakarlab to' ti gufto - ra





Murakkab taktda cho'zimlarning guruhlanishida uni tashkil qiladigan oddiy o'lchovlar alohida guruhcha tarzda bir biridan ravshan ayrilishi zarur. Oddiy o'lchovli guruhchalarda, yuqorida aytilgandek, mayda cho'zimlarni guruhlash qoidalariga rioya qilish lozim.

4- §. Vokal musiqlasida nota cho'zimlarini turkumlash.

Vokal musiqa - bu qo'shiq aytish uchun mo'ljallangan musiqa. U so'zlar bilan yoziladi. Bunday musiqlardagi notalar matndagi so'z bo'g'inlariga ko'ra birlashtiriladi. Agar bitta nota bitta bo'g'inga mos keladigan bo'lsa, unda notalar

alohida yoziladi (sakkiztalik notalar bayroqchasi bilan yoziladi). Agar so‘z bo‘g‘iniga bir nechta nota tog‘ri kelsa, ular hissalar asosida guruhlanadi va shu bilan birga liga chizig‘i bilan birlashtiriladi (49-54- misollarga qarang)

Cho‘zimlarni guruhlashdan maqsad ritmnini tez o‘qish uchun osonlashtirish va tushunarli darajada ko‘rsatib yozishdir.

| | |
|---|--|
| Hissa Takt | Hissa musiqiy pulsni takrorlanadigan urishdir. Tinglovciilar musiqa bilan birga bir xil maromda oyoqlari bilan er tepib yoki qo‘llari bilan chapak chalib, uni (har bir hassani) his qiladilar. Musiqachilar hissalarni bir guruhga birlashtirib, unga takt deb atashadi. Har bir takt oxirida takt chizig‘i qo‘yiladi. Maxsus yakunlovchi takt chizig‘i asar yoki uning nisbatan tugallangan qismi yakunini ko‘rsatadi. |
| |  |
| O‘lchov Hissa birligi, Oddiy o‘lchov | Vaqt o‘lchovi (yoki metr o‘lcejovi) bitta takt ichida nechta hissa borligini va har bir hassa qaysi cho‘zimga egaligini ko‘rsatib turadi (ushbu cho‘zim hissa birligi deb ataladi). Oddiy metrda o‘lchovning ustki raqami har taktda hissalar soni, pastdagi raqami esa hissa birligini bildirad. O‘lchovlar kasrlar emasdir, negaki o‘lchov raqamlari orasida chiziq qo‘ymaydi. |
| |  |
| Ikki-, Uch-, To‘rt-hissali metr | Asarning har bir takti ikki hissadan iborat bo‘lsa Ikki-hissali metr (ya’ni o‘lchov), uch hassadan – Uch-hissali , to‘rtta hissa To‘rt-hissali metr hosil qiladi. |
| |  |
| Hissa bo‘linishi | Oddiy metrdagi har bir hissa o‘z ichida ikkita yoki to‘rtta teng bo‘laklarga bo‘linishi mumkin. Quyida bitta choraktali hissa ikkita nimchorak yoki to‘rtta o‘n oltitalik notalarga teng bo‘ladi. (qarang 1.4. Cho‘zimlar). |
| |  |
| Boshqa hissa birliklari | Oddiy o‘lchov pastki raqami hissa birligini ko‘rsatib turadi: 2 – yarimtali nota, 4 – chorak, 8 – nimchorak (sakkiztalik) va x.k. |

| | |
|---|--|
| Kesilgan o'Ichov | Quyida keltirilgan birinchi misoldagi o'Ichov kesilgan o'Ichov yoki alla breve deyiladi. |
| Alla breve | Ikkinci misoldagi o'Ichov umuman Barokko badiiy yo'nalishdagi musiqaga xosdir; ayrim hollarda sakkiztalik notalar bog'lovchi qovurg'ani o'rniqa bayroqchalar bilan yoziladi. |
| Odatiy o'Ichov | Oxirgi misoldagi o'Ichov gohida odatiy o'Ichov deb aytildi. |
| | <p>The first example shows a measure in 3/2 time with two notes. The first note is labeled '1' and the second '2'. Below it, '2 = 2 beats' and '2 = ♩ gets beat' are written. The note '2' is also noted as 'is sometimes written ♩'.</p> <p>The second example shows a measure in 3/2 time with three notes. The notes are labeled '1', '2', and '3'. Below them, '3 = 3 beats' and '3 = ♩ gets beat' are written.</p> <p>The third example shows a measure in 4/2 time with four notes. The notes are labeled '1', '2', '3', and '4'. Below them, '4 = 4 beats' and '4 = ♩ gets beat' are written. The note '4' is also noted as 'is sometimes written ♩'.</p> |
| Takt oldi | Ba'zi kuylar takt oldi (yoki to'liqsiz takt)dan boshlanadi. Ko'pincha takt oldi bitta hissadan iborat bo'ladi, lekin har doim emas. Agar takt oldi mavjud bo'lsa, yakunlovchi takt qisqargan bo'ladi, chunki ular ikkalasi birgalikda to'liq takt uzunligiga baravar bo'lad. |
| | <p>A musical staff showing a sequence of notes. The first four notes are labeled '1', '1', '2', '3', '4'. An arrow points to the first note '1' with the label 'anacrusis (pickup)'. The last four notes are labeled '1', '2', '3', '4'. A bracket groups the last three notes '2', '3', '4' with the label 'shortened final bar (because of the anacrusis)'.</p> |
| Og'ir hissa Kuchli hissa Kuchsiz hissa | Og'ir hissa hak taktning birinchi hissasidir. Og'ir hissa asosiy va turg'un (kuchli) hissa hisoblanadi, chunki u har yangi hissalar guruhini boshlab beradi. Har taktning oxirgi hissasi noturg'un (kuchsiz) bo'ladi, chunki u oldinga, keyingi taktga tortuvchi hissadir. Taktning oxirgi hissasi og'ir hissadan ko'ra ko'proq aktiv (serharakat) bo'lib tuyuladi, chunki u kuy harakatini turg'un, kuchliroq og'ir hissa tomonga rag'batlantiradi. |
| Aksentuatsiya tuzilmalari | Quyidagi hissalar ketma-ketliklari odatiyidir: |
| | <ol style="list-style-type: none"> Ikki-hissali metr: ikkita hissa Kuchli-kuchsiz kabi aksentuatsiya tuzilmasida almashinib keladi. Uch-hissali metr: uchta hissa Kuchli-kuchsiz-kuchsiz kabi aksentuatsiya tuzilmasida almashinib keladi. To'tr-hissali metr: to'rtta hissa Eng kuchli-kuchsiz-Kuchli-kuchsiz kabi aksentuatsiya tuzilmasida almashinib keladi |
| Murakkab o'Ichov | Murakkab o'Ichovda hissalar ikkitaga emas, balki uchta maydar oq notalarga bo'linadi. O'Ichovning ustki raqami taktda mayda cho'zimli notalar sonini ko'rsatadi . Pastki raqam mayda notaning cho'zimini ko'rsatib turadi. Uchta mayda nota bitta hissani tashkil etadi. |
| | <p>The example shows a musical staff in 8/8 time. It consists of two measures. Each measure has four notes. The first measure is divided into two groups of two notes each, labeled '1' and '2'. The second measure is also divided into two groups of two notes each, labeled '1' and '2'. Below the staff, a note is shown with six vertical stems, labeled '6 = 6 division notes'. To its right, '8 = ♩ is division of beat' is written. Further down, 'One beat = ♩ + ♩ + ♩ = ♪' and '2 beats (Duplicate)' are given.</p> |
| Murakkab o'Ichovlar Decodingi | Ustki raqami 6, 9, 12, yoki 15 o'Ichovlar murakkab hisoblanadi. Hissalar soni raqamini olib, uni uchga bo'lamiz. Shunda, hissa birligi nuqtali nota bo'lib, uning cho'zimi pastki raqam cho'zimiga ko'ra har doim bittaga |

| | |
|----------------------------|--|
| | kattaroq bo'ladi: o'lchov pastki raqami 16 bo'lsa, hissa birligi nuqtali nimchorak (8talik) nota bo'lib chiqadi, pastki raqam 8 – hissa birligi nuqtali chorak bol'di va x.k. Murakkab o'lchovlar ikki, uch, to'rt yoki besh hissali bo'lishi mumkin. |
| | <p>1 2 3 9 = 9 division notes 16 = ♩ is division of beat One beat = ♩ + ♩ + ♩ = ♩. 3 beats (TRIPLE)</p> <p>1 2 3 4 12 = 12 division notes 16 = ♩ is division of beat One beat = ♩ + ♩ + ♩ = ♩. 4 beats (QUADRUPLE)</p> |
| Asimtrik o'lchovlar | Asimtrik o'lchovlar ikkita va uchta maydarloq cho'zimga bo'linadigan hissalar aralashmasiga ega bo'ladi. Ustki raqam taktiga mayda cho'zimgagi notalar sonini (ko'pincha 5, 7, 11) ko'rsatadi. Pastki raqam mayda notanining cho'zimini (hissa birligini emas) ko'rsatib turadi. Har bir hissaning mayda notalari bitta guruhga birlashib, qovurg'chilar bilan bog'lanadi. |

1 2
5 = 5 division notes
8 = ♩ is division of beat
2 beats (DUPLE)

1 2 3
7 = 7 division notes
16 = ♩ is division of beat
3 beats (TRIPLE)

1 2 3 4
11 = 11 division notes
8 = ♩ is division of beat
4 beats (QUADRUPLE)

| | |
|---|--|
| Asimtrik o'lchovlarni ijro etish | Asimtrik o'lchovlarda uchta mayda notaga bo'linadigan hissalar ikkiga bo'linadiganardan ko'ra uzunroq bo'ldi. Mayda notalarning uzunligi (hissa birligining emas) bir xil bo'lish kerak. Quyida keltirilgan chap tarafdagagi misolda nimchoraklar pulsi barqaror uradi, ong tarafdagagi misolda esa choraklar pulsi barqarordir (qarang 1.7. Turkumlash/Guruhash , triollar). |
|---|--|

1 2
5/8

...sounds different than...

1 2
3/4

| | |
|---|---|
| Takt oldi va hissalar ketma-ketliklari murakkab metrda | Murakkab metrda ham yozilgan asar takt oldidan boshlanishi mumkin. Shunday ekan, demak sasrning oxirgi takti takt oldi evaziga qisqaradi, xuddi oddiy metrdaqa. Murakkab ikki-, uch-, to'rt hissali metrlarga 1.5. O'lchovlar Oddiy metrda paragrafda keltirilgan hissalar ketma-ketligi xillari muvofiqdir. |
| O'lchovlar va metr yuzasidan | Oddiy o'lchovlar masalasi juda oddiydir: ustki raqam – hissalar soni, pastkisi – hissa birligi. Murakkab o'lchovlar deyarli har doim 6, 9, 12 yoki 15 ustki raqamga egadir; ular mayda notalar |

| | |
|--------------------------------------|--|
| umumiq qisqacha bayon | sonini bildiradi; pastki raqam mayda nota cho'zimini ko'rsatadi. Asimetrik o'lchovlar uzunligi har xil bo'lgan hissalarga egadir. murakkab olchovlarga oxshab, asimetrik o'lchovlarda ham mayda nota cho'zimi korsatiladi, hissa birligi emas. |
|--------------------------------------|--|

Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

Asosiy tushunchalar: Metr, takt, ulchov, hissa, aktsent, taktoldi, oddiy metr, ritm, sinkopa, cho'zimlarning asosiy va erkin bo'linishi, triol, kvintol, sekstol, septol, duol, kvartol, bir tekis ritm, punktirli ritm, sinkopali ritm, murakkab metr, aralash metr, o'zgaruvchan metr.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Asosiy tushunchalarning har birini batafsil yoritib bering.
2. Oddiy metrlarga musiqiy adabiyotdan misol topib, ularni dirijorlik uslubida hisoblab ko'rsating
3. Chap qo'lda oddiy metr pulsini, o'ng qo'lda ravon ritm, punktirli, sinkopali ritm misollarini urib chiqing.
4. Asosiy cho'zimlarni triol, kvintol, sekstol, septollarga hamda nuqtali cho'zimlarni duol, kvartollarga bo'lib, nota bilan yozing.
5. Turli xil ritm asosida bir necha kuy iboralarini bastalab, notaga tushirib chaling.
6. Murakkab, aralash, o'zgaruvchan metrlarga musiqiy adabiyotdan misol topib, ularni dirijorlik uslubida hisoblab ko'rsating
7. Chap qo'lda murakkab, aralash, o'zgaruvchan metr pulsini, o'ng qo'lda ravon ritm, punktirli, sinkopali ritm misollarini urib chiqing.

Quyida keltirilgan metr turlariga mos o'lchovlarini topib belgilang.

| | |
|--|--|
| 1. Aralash metr 2. Murakkab metr 3. Oddiy metr | a) 3/4 b) 5/2 c) 7/4 d) 9/8 e) 3/2 f) 6/4 g) 2/4 h) 7/8 |
| 1-c, b, h; 2-d, f; 3-g, a, e; | |
| 1-c, h; 2-b, d, f; 3-a, e; | |
| 1-d, h; 2-a, b, c, h; 3-g, a; | |
| 1-a, c, g; 2-b, f, h; 3-g; | |

8.

Metr nima?

kuchli va kuchsiz hissalarning bir tekis almashinib kelishi
kuchli hissaning bo‘rttirib ko‘rsatilishi
kuchli va kuchsiz hissalarning bir vaktda kelishi
aktsent kuchsiz xissaga berilishi

O‘lchovning yuqori raqami nimani bildiradi?

har hissaning cho‘zimini
intervalni
alteratsiya belgisini
hissalarning sonini

O‘lchovning pastki raqami nimani bildiradi?

hissalarnig sonini
har bir hissaning cho‘zimi
intervalni
alteratsiya belgisini

